

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Babadjanov	
O'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi va uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti	637
Э.Х.Мустаева	
Риторическая компетенция как основа формирования профессиональной коммуникации в условиях цифровизации.....	641
З.А.Низомитдинова	
Сравнительная идентификация гендерного дискурса в медиасреде	647
Н.М.Каримова	
Эволюция художественного языка В. Распутина и Х. Дустмухаммада: этапы и особенности.....	652
Ш.Н.Саминжонова	
Современные подходы исследования когнитивных единиц языка сети интернет	657
М.Э.Турсунова	
Влияние глобализации на язык молодежи на примерах англизмов	663
Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева	
Ключевые направления эволюции русского языкоznания в XXI веке: возникновение научных парадигм	666
З.Т.Исаева	
Комплексный анализ парадигматических и синтагматических структур.....	672
Д.О.Турдалиев	
Теория лингвистической относительности и её отражение в повести теда чана «История твоей жизни».....	678
Н.Т.Ходжаева	
Современные методы преподавания русского языка как иностранного: технологии, подходы, практическая значимость	681
В.Гимадетдинова	
Анализ лингвокреативных стратегий современного медиатекста	684
Э.А.Абдуллаева	
Социокультурный анализ межкультурных коммуникаций	688
Б.Х.Абдуллаева	
Трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века	693
У.М.Юлбарсова	
Лингвокультурные различия в восприятии концепта "Дом" у русских и узбеков	697
М.Т.Abdupattoyev	
Poetik sintaksis: ekspressiv va ekstralolingvistik vositalar talqini.....	700
F.H.Islomova	
Matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi metodlar.....	704
A.R.Dadajonov, I.T.Xojaliyev	
Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rni	707
G.A.Asomiddinova	
Stefan Svegning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy olamining talqini	711
Sh.T.Axmadjonova	
Ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari	714
Sh.G.Akbarova	
Nazar eshonqulning "Tobut" va Alber Kamyuning "Vabo" romanlarining qiyosiy tahili	717
Д.С.Усмонова	
Аксиология языка: как ценности формируют фразеологию и культурное сознание	722
A.I.Saminov	
Oksymoron komponentlarining mazmuniy munosabati	727
M.T.Xalilova	
Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning o'rganilishi xususida	732
N.A.Quldashev	
Raqamlı asrda til va identifikatsiya: ijtimoiy media, online muloqot va tildan foydalanish.	736
Г.Н.Давлятова, Г.М.Мамаджанова	
Фреймовое представление лингвокультурологических единиц	739



**STEFAN SVEYGNING "AYOL HAYOTIDAN YIGIRMA TO'RT SOAT"
NOVELLASIDA INSON RUHIY OLAMINING TALQINI**

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДУХОВНОГО МИРА ЧЕЛОВЕКА В НОВЕЛЛЕ СТЕФАНА ЦВЕЙГА
“ДВАДЦАТЬ ЧЕТЫРЕ ЧАСА ИЗ ЖИЗНИ ЖЕНЩИНЫ”**

INTERPRETATION OF THE HUMAN SPIRITUAL WORLD IN THE STORY “TWENTY-FOUR HOURS OF A WOMAN'S LIFE” OF STEFAN ZWEIG

Asomiddinova Gulbarno Alijonovna

Farg'onan davlat universiteti chet tillari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada buyuk Avstriya yozuvchisi Stefan Sveygning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida Inson ruhiy olamining tasvirlash usuli haqida so'z yuritiladi. Bu novellada qimor o'yiniga mukkasidan ketgan yigitning fojiasi mahorat bilan tasvirlangan. Yozuvchi badiiy detallarni o'ziga xos ravishda ishlatalib, inson ruhiyatining jihatlarini "qo'l" detali orqali ochib beradi. Masalan, matnda "Yashil stol atrofini ham qo'llar o'rabi olishadi" deb ta'kidlanadi. Ushbu qo'llar tasviri inson ruhiyatining o'ziga xos jihatlarini ifoda etadi va badiiy adabiyotda imo-ishoralar muhim rol o'yinaydi. Novellada bosh qahramon qo'l harakatlarini kuzatish orqali atrofidagi insonlarning ruhiyatini anglaydi va bu jarayon uning ichki dunyosini boyitadi. Shuningdek ushbu maqolada Stefan Sveygning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida badiiy psixologizm masalasi tahlil etiladi. Yozuvchi inson ruhiyatining murakkabligini, ayniqsa ayollar psixologiyasini o'ziga xos detallar va imo-ishoralar yordamida ochib beradi. Asarda qimor o'yiniga mukkasidan ketgan yigit fojeasi misolida, Sveyg qo'llar tasviri orgali personajlarning ichki dunyosini va ruhiy holatini chuqur yoritadi. Maqola badiiy psixologizmning ahamiyatini va Sveygning uslubiy mahoratini ko'rsatadi, shuningdek, adabiyotda psixologik tahlilning o'mi haqida fikr yuritadi.

Аннотация

В статье речь идет о поэтике жестов в новелле великого австрийского писателя Стефана Цвейга "Двадцать четыре часа из жизни женщины". В новелле мастерски изображена трагедия молодого человека, одержимого азартными играми. Автор использует художественные детали, чтобы достичь динамики описания и раскрыть психологические аспекты человеческой души через образ "руки". Например, в тексте упоминается, как "зеленый стол окружен множеством рук, каждая из которых представляет собой отдельный характер". Эти руки становятся метафорой внутреннего состояния человека, подчеркивая его нервозность и беспокойство. Исследования показывают, что в художественной литературе выражение человеческой психологии через жесты и мимику занимает важное место. В результате, в новелле автор показывает, как наблюдение за движениями рук помогает главной героине понять внутренний мир людей вокруг нее. Также в данной статье анализируется проблема художественного психологизма в новелле Стефана Цвейга "Двадцать четыре часа из жизни женщины". Автор раскрывает сложность человеческой психологии, особенно женской, с помощью уникальных деталей и жестов. На примере трагедии молодого человека, одержимого азартными играми, Цвейг глубоко освещает внутренний мир персонажей и их психическое состояние через описание рук. Статья демонстрирует важность художественного психологизма и мастерство стиля Цвейга, а также обсуждает место психологического анализа в литературе.

Abstract

The article deals with the poetics of gestures in the short story of the great Austrian writer Stefan Zweig "Twenty-Four Hours in the Life of a Woman". In the novella the tragedy of a young man obsessed with gambling is masterfully depicted. The author employs artistic details to achieve a dynamic portrayal and to reveal psychological aspects of the human soul through the motif of "hands". For instance, the text notes how "the green table is surrounded by numerous hands, each representing a distinct character". These hands serve as a metaphor for the inner state of individuals, highlighting their nervousness and anxiety. Research indicates that in literary works, the expression of human psychology through gestures and facial expressions plays a significant role. As a result, the author illustrates how observing hand movements enables the main character to understand the inner worlds of those around her. This article analyzes the issue of artistic psychological realism in Stefan Zweig's novella "Twenty-Four Hours in the Life of a Woman". The author reveals the complexity of human psychology, particularly that of women, through unique details and gestures. Using the example of a young man's tragedy driven by gambling addiction, Zweig profoundly illuminates the inner world of the characters and their psychological states through the depiction of hands. The article demonstrates the

significance of artistic psychological realism and Zweig's stylistic mastery while discussing the role of psychological analysis in literature.

Kalit so'zlar: imo-ishora, personaj, poetika, mimikaviy, kinetik, ruhiy olam.

Ключевые слова: жесты, персонаж, поэтика, мимические, кинетические, психологический мир.

Key words: gestures, character, poetics, mimic, kinetic, psychological world.

KIRISH

Badiiy asarlarda psixologik tahlil asosiy nazariy masala sanaladi. Badiiy psixologizmni amalga oshirishda yozuvchining uslubiy mahorati muhim hisoblanadi. Buyuk Avstriya yozuvchisi S.Sveyg asarları nafaqat o'z mamlakatida, balki boshqa mamlakatlarda ham muxlislariga ega. Uning "Yondirguvchi tilsimot", "Shaxmat novellasi", "Amok", "Noma'lum ayol maktubi" kabi asarları shular jumlasidandır. Uning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Adibning qator asarlarida ayol psixologiyasi mukammal talqin etiladi. Yozuvchi yuqoridagi asarlarda ayollar ruhiy holatini ochish uchun turli badiiy vositalardan unumli foydalangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODI

"Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida qimor o'yiniga mukkasidan ketgan yigit fojiasi mahorat bilan tasvirlab berilgan. Novellada badiiy detallardan o'ziga xos ravishda foydalangan yozuvchi detallar dinamikasiga erishib, inson ruhiyatiga xos jihatlarni "qo'll" detali yordamida oshib bergen va inson ruhiy olamini atroficha talqin etgan. Masalan, "Yashil stol atrofini ham qo'llar o'rabit olishadi, juda ko'pdan ko'p qo'llar, oq-sariq, chaqqon, sergak qo'llar, ular barchasi turli yenglar orasidan go'yo o'z inlaridan qaraganday mo'ralab poylab turishadi, har biri tashlanishga shay turgan yirtqich, har biri alohida rangda va shaklda, birlari g'irt yaydoq, birlariga uzukdan yugan taqilgan, birlariga esa jaranglagan zanjirlar osilgan, birlari ilonbaliqdek shilimshiq, lekin barchasi cheksiz betoqatlik sabab o'ta asabiy va xushyor turadilar"[3, 107].

Ushbu qo'llar tasviri asosida inson ruhiyatining o'ziga xos jihatlari ifoda etiladi. Badiiy asarlarda inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlash jahon adabiyotida ham keng o'rganilgan bo'lib, adabiyotshunoslar bu borada o'z fikrlarini bildirishgan. Jumladan, G.Y.Kreydin tarifiga ko'ra, "Badiiy adabiyotda imo-ishora keng ma'noda talqin etilganda, personajning harakati va yuz ifodasida bo'layotgan ruhiy jarayonlar e'tiborga olinishi tushuniladi" [2, 46].

Demak, imo-ishoralar zamirida vujud motorikasi birligi tushuniladi. Yuqoridagi matndan ma'lum bo'lishicha, muallif aynan shu ruhiy holatlarni qo'llar harakati va ularning ko'rinishi misolida talqin etadi. Masalan, "Go'yo hisob mashinasining po'lat panjalari singari", "...ikkalasi ham talashayotgan itlardek bir-biriga chirmashib olgan", "...xuddi bir o'q bilan otilgan ikki jonzotdek shilq etib yiqildi", "...go'yo ayoza qolgan it tishlarini taqirlatgandek" kabi o'xshatishlar yordamida qo'llarning ko'rinishini inson ruhiyatiga xos jihatlar asosida tasvirlaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

S.Sveyg novellistikasida imo-ishoralar o'ziga hos ramziy tilsimoti mavjud bo'lib, ushbu tilsim yozuvchi asarlarining psixologik aspekti hamda asar syujeti rivojida muhim o'r'in egallaydi. "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasining bosh qahramoni bir boy badavlat qirq yoshdag'i beva ayol Monte Karlo kazinolaridan birida vaqt o'tkazgani ruletka o'ynash uchun emas, qo'l harakatlarini kuzatgani kiradi va bu kuzatishlar unga qo'llar harakati orqali inson ruhiyatini bilib olish imkonini beradi. "Har safar bu yer menga beixtiyor otchoparni eslatadi, qo'llar xuddi barvaqt yugurib ketmasin, deya mashaqqat bilan tutib turilgan, qonlari qaynagan ayg'irlardek tipirchilashar, talpinishar, sergaklanishardi. Hamma narsani qo'llardan, ya'ni ularning qanday qimirlashiga boyliginisovurvchi chayqamani pala-partish pulni changallashi chog'ida ham yuzlab xarakterlar bir lahzadayoq o'zlarini fosh qilishadi, kaftlar g'ijimlanadi yoki asabiy tugiladi,yoki baraban aylanayotgan chog'da holdan toyib kaftlariga tayanadilar"[3, 107].

Asar bosh qahramoni turli xil qo'llar harakatini kuzatib, odam qo'llari o'yin chog'ida uning dilidagi hamma siri fosh etib qo'yishini anglab yetadi. Aynan shu qo'llar harakatida barcha qimorbozlarning ichki dunyosi va ruhiyati ochiladi. Muallifning asosiy mahoratini biz yuqoridagi tasviriy ifodalarda kuzatiladi. Badiiy matnda o'xshatishlar asosida quyidagi ko'rinishda o'z ifodasini topadi. Masalan: "...qiyshaygan panjali jun bosgan yirtqichlar, tillotangalarni changallayotgan o'rgimchaksifat panjalar" [3;107].

TILSHUNOSLIK

Yuqorida misollarda muallif inson barmoqlarini jonivorlarga o'xshatgan bo'lsa, kontekstning ayrim o'rinalarda inson his-tuyg'ulari, ruhiy kechinmalarini tabiat hodisalari orqali tasvirlaydi. Xususan, "...xuddi toshqin daryodek ko'pirib quylardi", "...toshdek qotib unga termilib turishim", "...bu hol go'yo tepada qora bulut bo'lib osilib turgandi va nihoyat, kutilmaganda momaqadiroqqa aylandi", "...u shunchalar tubanlikka tushgandiki, buni bir toshni ummon tubiga tushib ketishi bilan qiyoslash mumkin edi", "...tun qa'rida qo'rg'oshindek quylgan vujudim".

Ushbu asarda xatti-harakatlar orqali inson ruhiy holati tasviri ham ko'plab o'rinalarda uchraydi. Masalan: "...ich-ichidan adoyi-tamom bo'lgan bir odamning shalvirab devorga suyanib turishi", "...yigit o'z og'irligini arang ko'targancha bir amallab devorga suyanib turar" [3, 118].

K.G.Isupov ta'kidlashicha, personajning imo-ishoralari, tabassumi, ko'z qarashlari, inson gavdasi holati (pozasini) "noverbal replika"[1, 146] deb ataladi.

Keltirilgan misollar noverbal imo-ishoralar turiga mansub bo'lib, ular yigitning qimorda yutkazib qo'yib, tushkunlikka tushib qolganligini uning gavda harakatlari orqali tasvirlab beriladi. Mimikaviy imo-ishoralarda inson qayg'usi, g'azabi, quvonchi, ya'ni jamiyki yuz ifodasi orqali ko'rsatib beriladi. Bu holatni quydagi matnda kuzatamiz: "Ko'zlari olazarak bo'lib allaqachon general o'tirgan joyga qarab turardi", bir sapchib, ochko'zlik bilan oldida turgan pullarga chang soldi", "Ko'zlarida xuddi kaltaklangan itning qarashlari aks etar, lablari esa titrardi", "To'satdan u menga o'girildi, lekin bu yuz, menga qarab turgan yuz endi telbanamo va gangigan odamning yuzi emasdi, balki u g'azabdan yonar, ko'zlar qahrga to'la, lablar alamdan titrardi"[3, 126-127].

Keltirilgan parchada yigit qahr-g'azabda ekanligini uning so'zları emas, balki yuzida sodir bo'layotgan o'zgarishlar namoyon qilmoqda. Shuningdek, ayol obrazining ruhiy o'zgarishlarini quyidagi o'rinalarda ko'ramiz. "Boshim egilgan, uyatdan qizargancha, zo'r ishtiyooq bilan pichirlashayotgan odamlar oldida xuddi basharasiga pul irg'itishgan fohishadek titrab turardim"[3;157]. Ayol o'zidan shunchalik jirkanib ketganki, "yuz" so'zi o'niga "bashara" so'zini qo'llagan va o'zini fohishaga o'xshatgan. Bu esa bizga ayolning qay darajada uyalganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ayol hayotida bo'lib o'tgan yigirma to'rt soat haqida gapirib bergenida, u hikoyasi so'ngida muallif ta'riflaganidek: "xotiralar og'ushida qiz boladek iymanib, o'z holidan hijolat chekadi"[3, 161].

XULOSA

Har qanday asar strukturasida badiiy psixologizm yetakchi komponent sanaladi va obraz ruhiy holatini olib berish muhim hisoblanadi. S.Sveynning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy holatini talqin etishda imo-ishoralar tasviridan o'rinali foydalangan bo'lib, bu nazariy muammoning ayrim jihatlariga to'xtaldik xolos. Imo-ishoralar xoh mimikaviy xoh kinetik bo'lsin, u asar syujetini boyitishga katta hissa qo'shib, u yoki bu personajning portretiga, ruhiy kechinmalar tasviriga muhim chizgi bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Исупов К. Жест // Вестник Герценовского университета, №1-2, 2015. – С.146-150.
- Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык. – М.: Новое литературное обозрение, 2002. – 592 с.
- Цвейг С. Аёл ҳаётидан йигирма тўрт соат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 341 б.
- Цвейг С. Куйган кўнгил фарёди. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 253 б.
- Цвейг С. Письмо незнакомки. – Ташкент: Ёш гвардия, 1985. – 349 с.